

**INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN
BOLALARINING OTA-ONALARI BILAN ISHLASH.**

Djurayeva Sohiba Barat qizi

JDPU Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Oltibekova Moxinur Oybek qizi

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14185168>

Annotatsiya

Maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuvini ta'minlash, ota-ona yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning inklyuziv ta'limdagi o'rni masalalariga qaralgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, inklyuziv ta'lim sinfi, maxsus pedagog, ota-ona.

Hozirgi vaqtda zamonaviy jamiyat rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalar va ularni ota-onalarining ijtimoiy-psixologik holatlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda bunday bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlaydigan ijtimoiy, tibbiy, psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratish uchun ko'plab sa'yi-harakatlarni amalga oshirilayotganiga qaramay, bir qator muammolar mavjud. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, uning ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshligidan ilm olishga rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Shu sababli inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalarning ahamiyati katta. Alohida ehtiyojlari mavjud bolalarning ota-onalari farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushunishlari kerak. Asosiy muammolar bu imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan odamlarning ongini o'zgartirish, inklyuziv yondashuvni joriy etish, bu barcha bolalar uchun istisnosiz teng ta'lim va ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishni nazarda tutadi. Shuningdek, bu borada imkoniyati cheklangan farzandi bo'lgan ota-onalarga psixologik va pedagogik yordam ko'rsatishni ham nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Ota-onalar oilada sog'lom muhitni va farzandlari orasida tenglik muhitini yaratib berishlari, imkoniyati chegaralangan farzandlariga ta'lim olish jarayonida ko'maklashishlari juda muhim. Buning uchun, doimiy ravishda maktab jamoasi bilan aloqada bo'lish, bolaning tengdoshlari orasida moslashib ketishi va o'zlashtirish darajasini kuzatib borish zarur. Ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarni ertangi kunga umidi, o'ziga ishonchini oshirishi, muntazam motivatsiya berib borishlari tavsiya etiladi. Barcha ijtimoiy muassasalarning (ixtisoslashtirilgan rehabilitatsiya markazlari, bolalar bog'chalari, maktablar, qo'shimcha ta'lim muassasalari va



boshqalar) resurs imkoniyatlari to'plami sifatida mikro jamiyatning tibbiy-psixologik va pedagogik infratuzilmasini rivojlantirish muammosi alohida o'rin tutadi. Bu imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatning to'laqonli a'zolari sifatida muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Ko'pincha, imkoniyati cheklangan farzandi bo'lgan ota-onalar og'ir psixologik stressni boshdan kechirishadi, ular o'z farzandlari bilan muloqot qilishga va undan ham ko'proq uning rivojlanishiga yordam berishga tayyor emaslar. Shu ma'noda ota-onalar birinchi navbatda psixologik va pedagogik yordamga muhtoj, chunki imkoniyati cheklangan bolaga yordamning keng qamrovli tizimini yaratishda bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli kirishishiga asos sifatida, oilaning salohiyatiga tayanish zarur. Imkoniyati cheklangan bola bilan muomalada bo'lgan kattalarning psixologik holatini tushunish va hisobga olish, o'quvchini inklyuziv ta'limi va uning oilasiga samarali yordam ko'rsatishda psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish uchun zarurdir. Imkoniyati cheklangan bolasi bo'lgan ota-onalar bilan ishlash haqida gapirganda, biz ikkita yo'nalishni ta'kidlashni istaymiz. Birinchidan, quyidagi yo'nalishlarda ota-onalarning savodxonligini ta'minlashni nazarda tutadigan nazariy komponent yoki falsafiy dunyoqarash: bola patologiyasi to'g'risida tibbiy va biologik bilimlar; bolaga g'amxo'rlik qilishning o'ziga xos xususiyatlari, hayotni tashkil etish, kun tartibi to'g'risida gigienik bilimlar, huquqlar va imtiyozlar, ijtimoiy va huquqiy bilimlar; bolalarning yosh xususiyatlari, xulq-atvoridagi o'zgarishlar haqida psixologik va pedagogik bilimlar va boshqalar. Imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari bilan ishlashning ikkinchi yo'nalishi, bizning fikrimizcha, bola bilan aloqa o'rnatish, bolaga psixoterapevtik ta'sir ko'rsatish, oilada stressli vaziyatlarni bartaraf etish, nizolarni hal qilish qobiliyati bilan bog'liq ma'lum amaliy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Oilada imkoniyati cheklangan farzandning tug'ilishi oila hayotida inqirozli vaziyatning paydo bo'lishiga olib keladi va uning barcha a'zolari uchun og'ir psixologik stressdir. Ko'pincha oilaviy munosabatlar susayadi, chalkashlik hissi, depressiya, kasal bolaga nisbatan doimiy tashvish, jismoniy ortiqcha yuk va surunkali charchoq oilaviy munosabatlarning beqarorlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Umuman olganda, sog'lig'i cheklangan bolaning ota-onasi o'zini psixologik jihatdan qanchalik qulay his qilsa, bolani reabilitatsiyasi shuncha yaxshi bo'ladi. Bu ota-onalar nima uchun bu biz bilan sodir bo'ldi, boshqalar bizni tushunmaydi, biz u bilan birga borishdan uyalamiz va hakozo qayg'ularga berillishmaydi. Ya'ni, bunday ota-onalarning hozirgi vaziyatga munosabati konstruktiv bo'lib, ular bolani atrofidagi dunyo haqida bilib olishiga yordam berish, unga boshqalar bilan muloqot qilishni,



hayotdan zavq olishni o'rgatish haqida ko'proq o'ylashadi. mkoniyati cheklangan bolalarga oiladagi ota-ona munosabatlarini quyidagi turlari farqlanadi:- avtoritar uslubdagi munosabatlar;-nevrotik holatdagi munosabatlar;- psixosomatik holatdagi munosabatlar;-me'yordagi ijobiy munosabat.Avtoritar uslubdagi munosabatlarda ota-onalar o'zlarining shaxsiy his-tuyg'ulari bilan yashashga intiladilar. Farzand tarbiyasida asabiy, qo'pol tanbehlar, tarbiyaviy ishlarni olib borishdame'yoriy chegaralarning yo'qligi, boladagi mavjud kamchilikni katta fojea sifatida qabul qilish asosida qo'ni-qo'shnilardan bolani bекitishga urinish, imkon qadar mutaxassislarga ham murojaat qilmaslik bilan xarakterlanadi. Imkoniyati cheklangan bolalarning rivojlanishida avtoritar uslubdagi munosabatlar juda katta salbiy ta'sir etadi. Bunday munosabat bolaning imkoniyatlarini yanada chegaralaydi, ikkilamchi nuqsonlarning chuqurlashib ketishiga, ijtimoiy jamiyatga moslashuvining qiyinlashuviga va boshqa ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi.Nevrotik holatdagi munosabatlar bolani tashqi muhit muammolaridan himoya qilish, doimo havotirli kayfiyat, bolaga haddan tashqari ortiqcha g'amxo'rlik qilish bilan xarakterlanadi. Boladagi nuqsonni bartaraf etishga umidsizlik bilan qaraydilar, bolaga nisbatan ishonchsizlik tuyg'usini hosil qiladilar. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati cheklangan bolalarning o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarining shakllanmasligiga yoki juda kech shakllanishiga,ijtimoiy hayotga moslashuvining qiyinlashuviga, boqimandalik kayfiyatida voyagayetishiga olib keladi. Bunday holatdagi munosabatlar imkoniyati cheklangan bolalar kelajak hayotiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi.Psixosomatik holatdagimunosabatlarda bolaga har ikkala nevrotik va avtoritar uslubda munosabat ko'rsatiladi. Ya'ni, ota-ona nogiron bolaga ham haddan tashqari g'amxo'rlik qiladi ham bolaning imkoniyatlarini chegaralaydi. Bunday munosabat bolaning boshqalarga qaramligining ortishiga, ijtimoiy jamiyat haqidagi tasavvurlarining yanada torayib borishiga, nuqsonlarining chuqurlashib ketishiga olib keladi.Me'yordagi ijobiy munosabatda ota-ona nogiron farzandiga avvalo shaxs sifatida qaraydi. Uning kamchiligidan uyalishi, qo'rqish, hadiksirash hissida yashamaydi. Mutaxassislar bilan doimiy hamkorlik o'rnatishga intiladi. Mutaxassislar maslahatlari va ko'rsatmalariga amal qiladilar. Farzandining kelajagiga ishonch bilan qaraydi. Bunday holatdagi munosabat asosida boladagi mavjud nuqsonni erta aniqlash, samarali korreksiyalash va ikkilamchi nuqsonlarning oldini olish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bolaning o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari yuqori darajada rivojlanadi, ijtimoiy hayotga erta va imkon qadar to'laqonli moslashadilar.Bundan



tashqari imkoniyati cheklangan bola tarbiyalanayotgan oila ko'p hollarda psixotravmatik holatda bo'lishi kuzatiladi. Ayrim ota-onalar maslahatchi - mutaxassislarga nisbatan ishonchsizlik bilan munosabatda bo'lib, turli xil ilmiy va tibbiy markazlarga murojaat etib, qo'yilgan tashxisni qabul qilsalarda, bolaning rivojlanish imkoniyatlariga yuqori talabda ishonch bilan qaramaydilar. Ko'pchilik ota-onalar farzandlarining umumta'lim maktablariga qatnagunlaricha mavjud nuqsonlarini anglamaydilar yoki e'tibor bermaydilar. Bola maktabga chiqib, o'zlashtirishida tengdoshlaridan orqada qola boshlagachgina muammoning asl sababi ustida bosh qotiradilar. Tabiiyki, ushbu bolaga maktabgacha yoshida maxsus korreksion yordam ko'rsatilmagan. Natijada bolaning imkoniyatlari yanada chegaralanadi, korreksion ishning samaradorligi pasayib ketishiga olib keladi. Imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, bu munosabatlardagi mavjud kamiliklarni tuzatishvaoldini olish, mutaxassis va oila hamkorligini yo'lga qo'yish, ota-onalarning nogiron bola va uning o'ziga xos xususiyatlari, oilada olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar mazmuni haqidagi bilimlarini oshirish, oilalardagi psixologik muhitni yaxshilash, bolaga me'yordagi ijobiy munosabat turida qarashga o'rgatish, imkoniyati cheklangan bolalarning kamchiliklarini samarali korreksiyalashga, bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga, kasb-hunar o'rgatishga, sog'lom tengdoshlariga tenglashtirishga, ijtimoiy jamiyatga samarali moslashtirishga umumiy qilib aytganda inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishga yuqori darajada ijobiy ta'sir etadi. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish, ularning o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborgaolganholda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxsiyxususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv-arbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchibolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llaridan foydalansa maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Imkoniyati cheklangan bolali oilalarni rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi bu-ota-onalar va



bolalarni ta’lim muassasalaridagi turli xil ijodiy tanlovlarga, bolalar ishtirokidagi bayram tadbirlariga jalb qilish orqali, ularni faol ijtimoiy hayotga qo’shish. Yuqoridagilar asosida ta’kidlash mumkinki, ushbu faoliyat yo’nalishlari ta’limdagi inklyuziv yondashuv jixatlarini o’zida ifoda etadi. Bu borada jamoatchilik ongida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan bag’rikenglik, hurmat qilish va qabul qilish kabi fazilatlarni shakllantirish lozim. Jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarning barcha turdagi musobaqalarda, tadbirlarda boshqa bolalar bilan teng huquqli ishtirok etishi, nafaqat bolalarning o’zlari uchun, shaxslararo rivojlanishi uchun ham kuchli turtki bo’lib hisoblanadi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalarini ham qo’llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy-psixologik yordam berishni takomillashtirish inklyuziv ta’lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Temirov Abdumalik “IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR, ULARNING OTA-ONALARI VA PEDAGOGLAR O’RTASIDAGI MUNOSABATLAR” Educational Research in Universal Sciences

2. N.B.GOIPOVA INKLYUZIV TA’LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA NAMANGAN – 2024

3. Инклюзивная педагогика - гуманная педагогика Нигматов З.Г., заслуженный деятель науки РФ, доктор педагогических наук, профессор кафедры теоретической и инклюзивной педагогики ИЭУП (г. Казань)

